

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT
(I-hafta 1-5 may)

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoni (99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga 1-5 may kunlari **207 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "sms" xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og'zaki murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefonlari va jamg'arma manziliga hafta davomida **10(4,8%)** nafar imtiyozga ega fuqarolardan **e'tirozli og'zaki va yozma murojaatlar** bo'ldi.

Shulardan:

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan **bemor davolanish sifati yuzasidan noroziligini bildirib** Jamg'armaning ishonch telefoniga **og'zaki murojaat** qildi.

Ushbu murojaat yuzasidan shifoxona mas'ullariga telefon orqali murojaatchining ma'lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas'ullariga bemor e'tirozi o'rinliliigi yuzasidan tushuntirildi, **og'zaki murojaat o'z vaqtida bartaraf qilindi.**

Toshkent shahar Bektemir tumanida yashovchi fuqaro **Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida **o'z hisobidan dori vositalari sotib olganligi** yuzasidan **yo'zma murojaat** qilib Jamg'arma manziliga keldi. Fuqaroning yozma murojaati tegishli bo'limlar tomonidan o'rganish jarayonida.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga **Toshkent viloyati Olmaliq shahrida** yashovchi imtiyozga ega fuqaro **chet davlatda operatsiya o'tkazish uchun** Jamg'armaning ishonch telefoni orqali **og'zaki murojaat** qilgan bo'lsa Jamg'arma manziliga **Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida** yashovchi fuqaro **imtiyozga ega farzandi uchun** imtiyozli yo'llanma orqali davolanish tartibi yuzasidan murojaat qilib keldi. Murojaat qilgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-sonli qarorida belgilangan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga **imtiyozli yo'llanma orqali barcha bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar bepul bo'lishi** ya'ni Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilishi tushuntirildi.

Farg'ona, Namangan, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg'armaning ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, **og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati.